

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING AQLIY RIVOJLANISHDA ORQADA QOLISH SABABLARI VA OQIBATLARI

Sattorova M.A

QarDU Pedagogika kafedrası dots v/b.(PhD)

Ravshanova Shaxnoza Abduqoxxorovna

ATMU. Defektologiya yo'nalishi

2-bosqich 137- 23- guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishda orqada qolish sabablari, alomatlari, sog'lom bolaga nisbatan farqli jihatlari shu bilan birga davolashda mutaxassislar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan muolajalar hamda kasallik rivojlanmasligi, kasallikning oldini olish uchun muhim tavsiyalar ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *nevropsixolog, ruhiy ezilish, cheklovlar, alomatlar, defektolog, xarxasha, qattiqqo'llik.*

CAUSES AND CONSEQUENCES OF BACKWARDS IN MENTAL DEVELOPMENT OF SCHOOL-AGE CHILDREN

Sattorova M.A

Associate Professor (PhD), Karshi State University, Department of Pedagogy

Ravshanova Shakhnoza Abdulkhakhorovna

2st stage 137- 23rd group student of Department of defectology, University of

Information Technology and Management, Karshi

Abstract: *In this article, the causes, symptoms, and differences in mental development of school-aged children compared to a healthy child, as well as the procedures that can be used by specialists in treatment, as well as important recommendations for preventing the development of the disease, are shown.*

Key words: *neuropsychologist, mental oppression, restrictions, symptoms, speech defectologist, fussy, hardness.*

Maktab yoshidagi bolalarning yoshiga nisbatan aqliy rivojlanishda orqada qolishi bola yoshiga nisbatan aqliy salohiyatining me'yorda emasligiga aytiladi. Bunday bolalar nafaqat O'zbekiston, butun dunyodagi olimlar, psixologlar, pedagoglarning chuqur ilmiy izlanishlariga sabab bo'ladigan dolzarb muammo-lardan hisoblanadi. Bu masalaga O'zbekistonda nafaqat ayni kunlarda, qadim-qadimdan ota –bobolarimiz, onalarimiz, momolarimiz turli qadriyatlar, homilador ayol, bo'lajak onani ehtiyot qilish, emizikli onaning taomlanishiga qaratilgan e'tibor, bola poshshodir, bolaga yoshiga ko'ra munosabat o'rnatilishi kabi qator tushunchalar bilan bolalar tarbiyasida yuksak

natijalarga erishganlar desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunga ota-bobolarimiz farzandlari orasidan o'z ilmiy salohiyati bilan dunyoni lol qoldirgan qator allomalarimiz Abu Ali Ibn Sino, Al Horazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammaad Bobur, Nodira, Abdulla Qodiriy kabi nomlarini faxr bilan tilga olinajak bobolarimiz yaqqol isbot bo'la oladilar. Ayniqsa Mustaqillikdan so'ng bu borada mukammal ishlar amalga oshirila boshlandi deyish mumkin.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 9 – sessiyasida so'zlagan nutqida:

“Hurmatli do'stlar!

Aziz vatandoshlar!

Barchangiz yaxshi bilasizki, kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir”.-degandilar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi maruzalarida “Sog'lom bola sog'lom va ahil oilaning mevasi bo'lib, faqatgina sog'lom onadan sog'lom bola tug'iladi”,-deb ta'kidlagan edilar. Mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillaridan yuqorida aytganimizdek bu masalaga chuqur yondashib, bunda avvalo ota-ona salomatligi, oila, jamiyat farovonligi yo'lida dasturlar ishlab chiqildi. Amaldagi isbotini esa yillar nomlanishi va ishlab chiqilgan davlat dasturlarini hayotga joriy etilgani misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. “Oila yili”, “Ayollar yili”, “Sog'lom avlod yili”, “Ona va bola yili” bular zamirida sog'lom ona va sog'lom bola masalasi mujassamdir. Skrining markazlar, perinatal markazlar barpo etilgani avvalo ayollarning, onalarning shu bilan birga homilaning sog'lom rivojlanishiga qaratilgan e'tibordandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: Shavkat Mirziyoyev “Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avva-lambor qayerda ishlashidan qat'iy nazar, kim bo'lishidan qat'iy nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi”,-deb: kim bo'lishidan,qayerda ishlashidan qat'iy nazar xalqimiz uchun tibbiy ko'rik, tib-biy yordam, tibbiy muolaja, vaksinalar, homiladorlar uchun zarur vitaminlar kabi barkamol avlod tarbiyasi yo'lida Ozbekiston atalmish oilaning g'amxo'r otasi sifatida iliq munosabat, chuqur e'tiborlari tufayli katta natijalarga erishilmoqda deyish mumkin. Bular ta'lim sohasida, sport sohasida erishilgan yutuqlar qatorida bugungi kunda O'zbekistonda nuqsoni bor bolalar tug'ilishi avvalgi yillarga nisbatan kamaygani, nuqsoni bor bolalar uchun yaratilgan imkoniyatlar,

“Nuqsoni bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida” gi Qonun ma'qullangani shular jumlasidan. Aqliy rivojlanishdan orqada qolish ham nomlanishidan ayon bo'lib turgani kabi nuqsoni bor degani.

Bunday bolalar paydo bo'lishiga sabablar quyidagilar.

Bola homila (ona qornida) ligida onaning ruhiy ezilishi,

Yetarli darajada vitamin-mineral moddalarga boy oziq-ovqatlar istemol qilmasligi kabilar biologik sabablar.

Ijtimoiy sabablar esa:

- Bola erkin harakatlana olmasligi ya'ni cheklovlar;
- Erkalatishning meyordan oshishi;
- Bola yashayotgan oiladagi noqulay muhit; Masalan:
Sog'lom turmush tarziga rioya etmaslik.
- Ayniqsa uch yoshgacha bo'lgan davrida olgan travmasi;
- Yeqilish, og'ir kasalliklarga chalinish, epelepsiya (tutqanoq) kabilar.

Bunday bolalarda ko'zga tashlanadigan alomatlar: tengqurlariga nisbatan fikr yuritishi, dunyoqarashi, jamoat joylarida ozini tutishi va hatto jismoniy osishda (oila a'zolarida jismonan kaltalar mavjudlar bundan mustasno) ham orqadaligi bilan ko'zga tashlanadi. Chaqaloqligida mutaxasislargina aniqlay oladi. Chunki asosan ota-onalar ha chaqaloqda, xarxasha qiladi-da, deya e'tibor berishmaydi.

- Ko'p xarxasha qilishi;
- Tovush chiqarishi;
- Atrofdagilarga riaksiya bildirishi;
- Yoshiga xos so'zlar;

Sog'lom chaqaloqning rivojlanish meyoridan orqadaligi bilan farqlanib kerakli tekshiruvlardan so'ng tashxis qo'yish mumkin. Davolashda tashxis aniq bo'lishi bilan birga kechiktirmasdan mutaxasis nevropatolog, psixolog, defektolog, nutq teraprvtlari bilan doimiy maslahatlashib kerakli muolaja (nevropatolog, nevropsixolog kabi mutaxasislar tomonidan yozilishi mumkin) dori vositalarini, massaj, artikulyatsion, gimnastika, xotirani, fikrlash va e'tiborni rivojlantirishga oid mashg'ulotlarni vaqtida amalga oshirish yaxshi natijaga erishishni ta'minlaydi. Qancha erta aniqlansa shuncha yaxshi.

Tushuntirish uchun: noto'g'ri poyezdga o'tirib qolsangiz, qancha tez tushib qolsangiz, ortga qaytish shuncha oson.

Bundan ham yaxshisi esa ulug'larimiz aytganlaridek:

Kasallikni davolagandan oldini olgan yaxshi.

Shuning uchun: - homilador bo'lajak onaga yaxshi munosabatda bo'lish, ovqatlanish ratsioniga jiddiy e'tibor qaratish, toza havoda sayr qilishi va ko'proq adabiy uslubda kitoblar mutoala qilishi uchun sharoit yaratish;

- Bola tug'ilganidan jiddiy e'tibor bilan parvarishlash;
- Travma (yeqilishlardan) asrash, mobodo shunday holatlar ro'y berganida nevropatolog huzuriga olib borish;
- Emizikli ona o'zi ham, bolaga ham umuman shifokor ruxsatisiz o'z bilarmonlik bilan dorilar qabul qilmaslik, bermaslik;
- Bolaga yetarlicha e'tiborli bo'lish lozim, cheklashdan saqlanish ham muhim;
- Yoshidan qat'iy nazar uni tinglash, suhbatlashish, ruhlantirish;
- Chizgan, yozgan, yasagan narsa, ijod mahsullarini bee'tibor qoldirmaslik, yoshini inobatga olgan holda baholash, rag'batlantirish (yaxshi maqtov so'zlari, o'yinchoq kabilar bilan);

-Eng asosiysi bolaga doim boshqalarga muomila qilganingiz kabi nutqda (anin, g'anna, nanna, ashayim emas) muomalada bo'lish;

-To'g'ri turmush tarziga rioya qilishni o'rgatish;

-Erkalatish va qattiqqo'llikning meyorida bo'lishi;

Kabilar kasallikni oldini olishga kiradi.

Tilagim dunodagi barcha bolalarning onalari barkamol avlod tarbiyasidek mas'uliyatli shirin tashvishda baxt qurshovida yugurib-yelib yursinlar!

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Prezident Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. O'zbekiston.

2. I.Karimov "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" – T.Sharq,1997-y.

3. F.U.Qodirova, Sh.Z.Matupayeva, Sh.T.Shermuxamedova, B.Z.Fozilov, B.M.Abdullayev, Z.X.Xusniddinova. "Maxsus pedagogika asoslari" Chirchiq-2022.